



Mustaqillik yillarida O'zbekiston aholisi demografik jarayonlarining tarixiy

dinamikasi.

Mirakbar Mirsaidov Muzaffar O'g'li.


Millat Umidi Universiteti Buxalteriya va Moliya fakulteti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston aholisining mustaqillikdan so'nggi yillardagi demografik rivojlanishi, uning soni, jinsiy tarkibi, hududlar bo'yicha taqsimlanishi hamda urbanizatsiya jarayonlari batafsil tahlil qilingan. 1991-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda aholining o'sish sur'atlari va ularning o'zgarish dinamikasi ko'rsatkichlar asosida yoritilgan. Maqolada shuningdek, Farg'ona vodiysi viloyatlarining demografik jihatdan yuqori zichlikka ega bo'layotgani, aholining shahar va qishloq joylarda joylashuvi hamda migratsiya oqimlarining urbanizatsiya jarayoniga ta'siri haqida so'z yuritilgan. 2024–2025-yillarga oid statistik ma'lumotlar orqali mamlakatda demografik o'sishning barqarorligi, tug'ilish, nikoh, ajrim va vafot ko'rsatkichlari tahlil etilib, ularning umumiy demografik holatga ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar:Urbanizatsiya,O'zbekiston aholisi,migratsiya,jinsiy tarkib.


Muxokama:1991-yillarda mamlakatimiz hududida aholi soni 20.6million kishini tashkil etgan.Ulardan 10.4 million(50.6%) aholini ayollar tashkil etgan bo'lsa erkaklar 10.2 million(49.4%) tashkil etgan.Viloyatlar kesimida Farg'ona 2.2 million aholi bilan yetakchi bo'lgan.Bu ko'rsatkich

2025-yilga kelib 4.1 million aholini tashkil etmoqa.2000-yillarda esa aholi soni 24.5 millionga oshdi va bu ko'rsatkich 2010-yillarda 28millionga yetdi.2010-yilda ayollar ko'rsatkichi 50.6% dan 49.9% tushdi va erkaklar ko'rsatkichi esa 49.4% dan 50.1% ga oshdi.



Rasmda O'zbekiston aholisining 2024-yil 1-aprel holatidagi demografik ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Unda yurtimizdagi doimiy aholi soni, tug'ilishlar, nikoh va ajrimlar soni, aholi sonining o'sish dinamikasi hamda hududlar kesimidagi zichlik kabi asosiy ma'lumotlar aks etgan. Rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning doimiy aholisi 36 million 963,3 ming kishini tashkil etadi. Shundan 51 foizi shaharda, 49 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Jinsiy tarkib bo'yicha erkaklar 18,6 million(50.3%), ayollar 18.3million (49,7 %)ni tashkil qilmoqda.2024-yilning yanvar–mart oylarida mamlakatda 205,7 ming nafar bola tug'ilgan va ulardan 106,6 mingtasi o'g'il bola, 99,1 mingtasi qiz bola. Shu davrda 48,6 mingta nikoh qayd etilgan, 11,5 mingta nikoh ajrashgan.Vafot etganlar insonlar soni 40,2 ming kishini tashkil etgan bulardan 21,9 mingtasi erkak,

18,3 mingtasi ayollarga to'g'ri keladi. Doimiy aholi soni dinamikasiga ko'ra, so'nggi yillarda ijobiy o'sish kuzatilgan: 2021-yilda – 34,86 mln kishi, 2022-yilda – 35,61 mln kishi, 2023-yilda – 36,37 mln kishi, 2024-yilda – 36,96 mln kishiga yetgan.



urbanizatsiya jarayoni hali ham davom etmoqda — aholining ma'lum bir qismi qishloq joylardan shahar markazlariga yoki iqtisodiy imkoniyatlar ko'proq bo'lgan hududlarga ko'chmoqda.

Shuningdek, xorijiy mamlakatlardan kelgan va xorijga ketganlar soni ham rasmda keltirilgan va bu mehnat migratsiyasi orqali urbanizatsiya jarayoniga bevosita ta'sir etadi. Migratsiya oqimlari, ayniqsa, Rossiya, Qozog'iston va Janubiy Koreya yo'nalishlarida yuqori bo'lgan.

Umuman olganda, 2-rasmda berilgan ma'lumotlar O'zbekiston hududlarida urbanizatsiya jarayoni davom etayotganini, aholi zichligi yuqori bo'lgan viloyatlarda shaharsozlik va infratuzilma rivoji bilan birga demografik o'sish kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Xulosa: O'zbekiston aholisi mustaqillik yillaridan buyon izchil o'sib bormoqda. 1991-yilda 20,6 millionni tashkil etgan aholi soni 2024-yilga kelib 36,9 milliondan oshdi. Bu o'sish aholining tabiiy ko'payishi, shuningdek, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi bilan izohlanadi. So'nggi yillarda aholining katta qismi shahar joylariga ko'chib o'tmoqda, bu esa iqtisodiy faoliyat markazlarining kengayishi va infratuzilmaning rivojlanishiga olib kelmoqda. Hududlar kesimida Farg'ona vodiysi viloyatlari eng zich joylashgan hududlar bo'lib qolmoqda, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatlarida esa aholi zichligi past darajada. Jinsiy tarkibda so'nggi yillarda muvozanat saqlanib qolgan bo'lib, erkaklar 50,3%, ayollar esa 49,7% ni tashkil etadi. Migratsiya jarayonlari, ayniqsa ichki va mehnat migratsiyasi, aholining hududiy qayta taqsimlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tug'ilishlar sonining yuqoriligi, nikohlar va tabiiy o'sishning ijobiy ko'rsatkichi O'zbekiston demografik rivojlanishining barqarorligini ta'minlamoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston aholisi sonining muntazam ortib borayotgani, urbanizatsiya darajasining oshishi, mehnat resurslarining

kengayishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti – <https://stat.uz>

2. “O‘zbekiston Respublikasining demografik holati, 2024-yil yanvar–mart” statistik axboroti.

3. Jo‘rayev, R., G‘aniyev, A. Demografiya. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2015.

4. Tulaganov, X., Qudratov, A. Aholi geografiyasi va demografiyasi. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.

5. Abdurahmonov, Q.X. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar demografiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.